



Anvar IBAYEV,

Samarqand davlat chet tillar instituti, Til va tarjima kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti S. Shodiyev taqrizi asosida.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOMPARATIV BIRIKMALAR DERIVATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi so'z birikmalari derivatsiyasida operand, operatorlarni aniqlash, dubloperator tushunchasi mazkur tillar chog'ishtiruvda tahlil qilingan. Bunda asosan, bitishuv modelidagi so'z birikmalari va ularning o'ziga xos jihatlari derivatsion aspektida tahlil qilingan. Shu bilan birga so'z birikmasi va sodda yig'iq gapning o'zaro farqiga derivatsion nuqtai nazardan yondashilgan.

Kalit so'zlar: hosila, aniqlovchi, aniqlanmish, derivatologiya, derivatsiya, operand, operator, derivat, dubloperator, monooperator, komparativistika.

DERIVATION OF COMPARATIVE COMPOUNDS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

In this article, the concept of operand, definition of operators, double operator in the derivation of word combinations in English and Uzbek languages is analyzed in these languages. Also, a phrase, a sentence and complex syntactic wholes are considered as a text, i.e. the above syntactic constructions, depending on the circumstances, which are considered as the text. In addition, some judgments were noted that complex syntactic wholes can also be called the terms period and over-phrasal unity.

Key words: derivative, determinant, determination, derivation, derivation, operand, operator, derivative, double operator, monooperator, comparativistics.

ДЕРИВАЦИЯ СРАВНИТЕЛЬНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье анализируется понятие операнда, определение операторов, дублоператора при образовании словосочетаний в английском и узбекском языках в этих языках. В этом особенное внимание уделялось на ряд словосочетаний, которые образовались с помощью путём примыкания и их деривационным особенностям. Кроме того исследованы различия между словосочетаний и предложений.

Ключевые слова: производная, определитель, детерминация, вывод, вывод, операнд, оператор, производная, двойной оператор, монооператор, компаративистика.

Kirish. Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrigacha so'z birikmasi muammosi ilmiy tadqiqotlar kun tartibidagi eng muhim masalalardan biri bo'lib keldi. Har bir tadqiqot ishida umumiy masalaning u yoki bu xarakterdagi muammolari yoritildi. Biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu sohada ham izohtalab masalalar anchagina ko'rinadi. Ular jumlasiga so'z birikmalarining semantik tahlilini, formal sintaktik va funksional yo'nalishdagi tahlilini mazkur tahlillar bilan bog'liq bir necha masalalarni kiritish mumkin. Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi davrida komparativistikaga oid masalalar olimlarning diqqat markazida turgani sir emas. Ikki til qiyosida tilshunoslikning ma'lum yo'nalishlarini o'rganish qadimdan mavjud bo'lgan. Ammo bugungi kunda bu masala o'z tadqiq tempini yo'qotmay, aksincha yanada jadallashib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ma'lumki, tilshunoslikda ikki xil katta yo'nalish mavjud: umumiy va xususiy tilshunoslik. Birinchi holatda tilshunoslar alohida tillar (ingliz, fransuz va h. k.) ustida ishlasalar, ikkinchisida ular umuman insonlarning tilini o'rganish bilan shug'ullanadilar. Keyingi holatda konkret tillar o'rganish ob'ektlarining misollari sifatida maydonga chiqadilar.

Biroq, ayni paytda chog'ishtiruv tahlil tilshunoslikning o'rganish ob'ektlaridan biri sifatida bizning diqqatimizni tortdi. Aytish joizki, chog'ishtiruv tahlil tilshunoslikning na umumiy, na xususiy yo'nalishiga mansub. U bu ikki yo'nalishning oralig'idagi bir o'rinni egallaydi. Zero, chog'ishtiruv tahlil ma'lum bir tilning ichki xususiyatni o'rganish bilan birga tillararo taqqoslash bilan ham

shug'illanadi. Ammo chog'ishtiruv tahlil tillar tasnifini o'rganmaydi. U o'z atamasidan (chog'ishtiruv) kelib chiqqan holda tillar o'rtasidagi o'xshashlikdan ko'ra, ularning farqini ko'rib chiqadi.

Shunga asoslangan holda biz ham quyida komparativ birikmalarning derivatsiyasini ingliz va o'zbek tillari qiyosida farqlab o'rganamiz.

So'z birikmalari xususida tilshunoslikda ko'plab munozarali fikrlar mavjud. Bundan tashqari mazkur hodisa bugungi kungacha ko'plab tilshunoslar tomonidan tadqiq qilinganidan qat'i nazar, bu sohada hali o'ganilishi lozim bo'lgan masalalar talayginadir.

Aytish lozimki, so'z birikmalari aksariyat adabiyotlarda kamida ikki mustaqil so'zning tobeklik asosida bog'lanishidan tashkil topuvchi nominativ birlik tarzida ta'riflanadi. buni biz V.V.Vinogradovning so'z birikmasi kamida ikki mustaqil ma'noli so'zning o'zaro birikuvidan tashkil topadi va gapning qurilash materiali sanaladidegan fikrini keltirib o'tishimiz mumkin.

Bizningcha, Vinogradovning mazkur fikri birmuncha izohtalabdir. Zero, so'z birikmasining shakllanishi har doim ham ikki mustaqil so'zning tobelanishiga asoslanavermaydi. Fikrimizcha ikki mustaqil so'zning tenglik asosida bog'lanishi ham garchi teng bog'lanish adabiyotlarda so'z qo'shilmasi deb berilgan bo'lsa-da so'z birikmasi maqomida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki agar biz teng bog'lanishli birikmalarni so'z qo'shilmasi deb oladigan bo'lsak, bu holat, nazarimizda, tilshunoslikda sun'iy ravishda atamalarining ko'payishiga olib keladi. Shunday ekan, biz quyida ishimizda

teng bog'lanishli birikmalarga ham, tobe bog'lanishli birikmalarga ham so'z birikmalari deb qaraymiz.

Ma'lumki, so'z birikmalari derivatsiyasi sintaktik derivatsiya mahsuli sanaladi. Buni biz derivatologiyaga bag'ishlangan mavjud ishlarda ko'rishimiz mumkin. Odatda tobe komponentli so'z birikmalari haqida so'z yuritilganda, uning kamida ikki mustaqil so'zning tobelik asosida bog'lanishidan tashkil etishi ko'zda tutiladi. Bu jihatdan u gapdan keskin farq qiladi. Chunki gap bir so'zdan iborat bo'lishi ham mumkin. So'z birikmasi esa o'z atamasidan kelib chiqadigan bo'lsak ham, bir so'zdan iborat bo'la olmasligini ko'rishimiz mumkin.

So'z birikmalari otli va fe'lli birikmalarga bo'linishi sir emas. Qaratqich-qaralmish modelidagi so'z birikmalarining sintaktik derivatsiyasida qaratqich kelishi-gining qo'shimchasi derivatsion nuqtai nazardan operator vazifasida keladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, derivatologiyada operator, operand hamda derivat atamaları mavjud bo'lib, bu atamalar japon tilshunosligida bir xil qabul qilingan.

Operand derivatsion jarayonda xom ashyo vazifasini bajaradi. Operator hokim unsur sanaladi. Derivat esa hosila strukturani taqozo etadi. Bu atamalar ham sintaktik, ham semantik, ham leksik derivatsiyada qo'llaniladi. Biz ko'rib chiqayotgan sintaktik derivatsiyaning mahsuli sanalgan so'z birikmalarda ham ana shu atamalardan foydalanamiz. Fikrimizni fe'lli birikmalar misolida dalillaydigan bo'lsak, quyidagi holatga duch kelamiz:

go to school - maktabga bormoq

Keltirilgan misolda biz to predlogining vazifasini o'zbek tilda -ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi bajarayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda derivatsion nuqtai nazaradan to predlogi operator vazifasini bajarayapti. O'zbek tilidagi misolimizda esa -ga qo'shimchasi hokim unsur maqomida kelayapti. Biroq shuni ham aytish lozimki, biz o'zbek tilidagi misolda -ga qo'shimchasining o'rniga *tomon* ko'makchisini ham qo'llashimiz mumkin. Bunday vaziyatda operator vazifasini *tomon* ko'makchisi bajaradi:

maktab tomon bormoq

Ko'rinadiki, so'z birikmasining bunday shakli ingliz tilidagi variantiga aynan mos keladi.

Keltirilganlar bilan bir qatorda shuni ham aytish joizki, ayrim hollarda derivatsion jarayonda operatorlarning soni bittadan ortiq bo'lishini kuzatishimiz mumkin:

brother's book - ukamning kitobi

Mazkur misollarda guvohi bo'lganimizdek, derivatsion nuqtai nazardan ikkita til o'rtasida farq yaqqol ko'zga tashladi. Ingliz tilidagi misolni tahlil qiladigan bo'lsak, berilgan so'z birikmasida *brother* va *book* so'zlari operand, ikki operandni bog'lab turgan 's unsuri operator, hosil bo'lgan struktura esa derivat, ya'ni hosila strukturadir.

O'zbek tilidagi misolda esa ingliz tilidagi misoldan farqli o'laroq, operandlar soni birdan ortiq ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu o'rinda qaratqich kelishigi hamda uchinchi shaxs birlikdagi egalik qo'shimchalari birgalikda operator vazifasini bajarayapti. Zero, -ning va -i qo'shimchalarining har ikkalasi ham derivatsiya operandlarining sintaktik bog'lanishini tashkil etish orqali derivat shakllanishi uchun xizmat qilmoqda.

Muhokama va natijalar. Ta'kidlash joizki, ayni paytda operator strukturasi ko'ra murakkabdir: -ning+i. Bunday vaziyatda prof. N.Turniyozov dubloperator terminidan foydalanadi. Demak, dubloperator tarkibli ekanligi bilan sodda operatorlardan farqlanadi. Biroq bajaradigan funksiyalariga ko'ra sodda va dubloperatorlar o'rtasida farq yo'q. Ko'rinadiki, mazkur xususiyatiga ko'ra o'zbek tilidagi misolimiz ingliz tilidagi misolimizdan farq qiladi. Boshqacha

aytganda, o'zbek tilidagi misolimiz dubloperatorga tayansa, ingliz tilidagi misolimiz yakka operatorga tayanadi.

Ravshanki, -ning operatori so'z tarkibidan tushirilgan bo'lishi ham mumkin:

maktabning bog'i - maktab bog'i

Ammo bunday vaziyatda birikmaning sintaktik derivatsiyasi operatorsiz ekan, degan xulosaga kelmaslik lozim. Chunki tushirilgan affiks ham real ifodali morfema qanday derivatsion mavqega ega bo'lsa, shunday salmoq kasb etadi.

Biroq o'zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilida bunday hodisaga duch kelmaymiz:

garden of school

Mazkur misolda of predlogi derivatsiya operatori bo'lib, uni ingliz tilida beglisiz qo'llab bo'lmaydi. U albatta ishtirok etishi shart.

O'zbek tilshunosligida A. G'ulomov va M. Asqarovaning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli darsligida so'z birikmalari mustaqil sintaktik birlik sifatida to'g'ri talqin qilinadi va uning lingvistik tavsifi hamda o'ziga xos tabiati misollar vositasida izohlanadi. Mazkur ishda so'z birikmalarining asosiy ma'nosi hokim komponent orqali ifodalanishi, tobe komponentning esa hokim komponentning ma'nosini izohlashga, aniqlashtirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan. A.G'ulomov va M.Asqarovalar so'z birikmalarining nominativ funksiyasi, ularning bu jihatdan so'zga yaqin turishi, erkin va turg'un so'z birikmalarining o'zaro farqi kabi xislat va belgilarini ham juda mukammal yoritishgan. Bundan tashqari, garchi so'z birikmalari jumlasiga kiritilmagan bo'lsa-da, so'zlarning teng bog'lanishi usullari atroflicha tahlil qilingan. Biroq bu ishda ham so'z birikmalari sintaktik va semantik jihatlari bilan gapdan keskin farq qilishi eslatiladi. Shu bois mazkur ishda faqat nopredikativlikka asoslangan so'z birikmalari xususida ma'lumot keltirilgan. N.Mahmudov va A.Nurmonovlar o'zaro grammatik va muzmunij jihatdan bog'lanib, obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiruvchi sintaktik birlik so'z birikmasi sanalishini ta'kidlaydilar. Bunda asosiy e'tibor so'z birikmasi ma'lum gap bo'laklarining kengayishidan hosil bo'lishiga qaratiladi. Masalan, *Meni kutgil* birikmasi kutgil so'zining kengayishidan hosil bo'lganligi to'g'ri ko'rsatiladi. Ammo shunday bo'lsa ham, so'z birikmasining predikativli turi - fe'lli birikmalar xususida fikr bildirmaydilar.

Umuman olganda, hozirda "birikma" tushunchasi keng ma'noda tushuniladi. Har qanday so'zlarning leksik va grammatik aloqaga kirishuvidan birikma hosil bo'ladi.

Adabiyotlarda mustaqil va mustaqil, shu bilan birga, mustaqil va mustaqil bo'lmagan so'zlar birikma sanaladi degan fikrlar mavjudligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Biroq biz ishimizda har qanday birikma emas, balki so'z birikmalari va ularning derivatsion-komparativ xususiyatlarini ko'rib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz.

Ravshanki, nutq tilning barcha belgilarining kesishish chizig'ini tashkil qiladi. Boshqacha aytganda til belgilarining faollashuvi uchun nutq makon hisoblanadi. Bu jarayonda, albatta, pog'onali (ierarxik) munosabat vujudga keladi va tilning har bir belgisi o'ziga nisbatan kattaroq belgi tasarrufidagi shakliy va mazmunij faollikka erishib, uning qurilish materiali bo'lib keladi. Ana shu tarzda til unsurlari nutqqa ko'chiriladi. Bunda fonema, morfema va so'zlarning ierarxik munosabatlari xarakterlidir, zotan ular til birliklaridir.

Erkin so'z birikmasi bir paytning o'zida ham nutq, ham til birligi bo'la olmaydi. U nutqda shakllanadi va nutq birligi hisoblanadi. Shu bois uni gapning qurilish materiali deb bo'lmaydi. Chunki gapning qurilish materiali so'zdir. So'z birikmasining tarkibiy qismlari ham gapda mustaqil holda sintaktik vazifa bajaradi.

So'z birikmalari erkin sintaktik qurilma sanaladi, chunki uning komponentlari o'zaro munosabatga kirishganda biz erkin aloqani kuzatamiz. Shu bilan birga, so'z birikmalari kichik sintaktik qurilma sanaladi. Quyida bu qurilmalarni derivatsion aspektida komparativ nuqtai nazaridan tahlil qilamiz.

Komparativ qurilmalarning derivatsiyasi haqida gapirganda, avvalo "Derivatsiya" o'zi nima, degan savol tug'iladi, Lingvistik ensiklopedik lug'atda "Derivatsiya" atamasiga shunday ta'rif berilgan: "Derivatsiya atamasi lotincha derivatio – yasaliş, hosil qilish degan ma'nolarni anglatib, ba'zi bir til birliklarini (derivatlarni) boshqalari asosida yaratish jarayoni, affiksatsiya yoki boshqa usullar bilan so'z negizini kengaytirish tushuniladi. Shuning uchun derivatsiya ba'zan so'z hosil qilish, so'z yasalişu bilan tenglashtiriladi". Demak, "derivatsiya" yasaliş, hosil bo'lish, shakllanish degan ma'noni bildiradi. Yasama so'zlarga nisbatan biz leksik derivatsiya tamoyillarini qo'llasak, derivatsiya so'zining "yasaliş" degan tarjimasini o'rinli deb bilamiz. Ammo so'z birikmalariga nisbatan "derivatsiya" atamasining "yasaliş" degan variantini emas, balki "hosil bo'lish", "shakllanish" kabi tarjimalarini qo'llasak, fikrimizcha maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aytish joizki, so'z birikmalari kichik sintaktik qurilma sifatida sintaktik derivatsiya mahsuli sanaladi va derivatsion nuqtai nazardan tahlil qilinganda, ularga nisbatan ham operator, operand va derivat atamaları qo'llaniladi. Masalan:

Qalamning uchi

Mazkur birikmada **qalam** va **uch** so'zlari operand, **ning** va **-i** qo'shimchalari operator sanaladi. Bu vaziyatda biz oldingi ishlarimizda ham ta'kidlab o'tganimizdek, dubloperator maqomidagi vositalarga duch kelyapmiz.

So'z birikmasining sintaktik derivatsiyasini o'rganishda hokim komponent bilan tobe komponentning qay tarzda munosabatga kirishuvi masalasi muhimdir. Aynan shu narsa sintaktik derivatsiya hodisasining eng yuqori nuqtasini belgilaydi. Zero aloqa vositasi sintaktik derivatsiya operatori vazifasini bajaradi. Operator – bu sintaktik derivatsiyaning mutlaq hokim unsuri demakdir.

Ta'kidlash lozimki, so'z birikmalarining ma'nosi, so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga ko'p jihatdan bog'liq. So'z birikmasi komponentlaridan biri qolib, ikkinchisi o'zgarsa, so'z birikmasining ma'nosi semantik jihatdan o'zgaradi:

1.go'zal tabiat

go'zal qiz

2.qora tulpor

uchqur tulpor

Ko'rinib turganidek, keltirilgan misollarning birinchisida bosh so'z, ikkinchisida esa ergash so'z o'zgargan. Bu albatta uning semantik ma'nosiga ta'sir qilyapti. Ammo

sintaktik qurilmaga ta'sir etmayapti. Derivatsion jihatdan ham deyarli o'zgarish bo'lmayapti.

1.Go'zal, tabiat – operand, ichki ma'no operator.

Go'zal, qiz – operand, ichki ma'no operator.

2.Qora, tulpor – operand, ichki ma'no operator.

Uchqur, tulpor – operand, ichki ma'no operator.

Bu o'rinda operator yo'q deya olmaymiz, zero operator bo'lmas ekan, derivatsiya ham bo'lmaydi. Berilgan misollarimizda operator nol ko'rinishdadir. Turniyozov N.K. bunday vaziyatlarda "nol operator" atamasini qo'llagan. Biroq "nol operator" tushunchasi nisbiydir. Chunki sintaktik derivatsiya operatorsiz vujudga kelmaydi. Ayni paytda aniqlovchi-aniqlanmish munosabati tilning ichki qonun qoidalari va nutqning talabi asosida to'g'ridan-to'g'ri vujudga kelmoqda.

Ammo shu o'rinda aytish lozimki, yuqoridagi misollarning har ikki variantida ham sirtidan qaraganda semantik ma'no operator sanalsa-da va unda go'yo o'zgarish yo'qdek ko'rinlsa-da, aslida ularning ichki ma'nosida farq bor, albatta. Zero, birinchi misolimizni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi o'rinda so'z tabiat haqida, ikkinchi o'rinda esa qiz haqida ketmoqda. Bu esa juda ahamiyatlidir. Chunki gap bitishuvli birikma haqida ketar ekan, biz nafaqat sintaktik derivatsiya, balki, semantik derivatsiya haqida ham so'z yuritishimiz kerak bo'ladi. Shunday ekan, birinchi vaziyatda biz derivatsiya operatori sifatida birikmaning ichki ma'nosini, ya'ni tabiatning go'zalligini, ikkinchi vaziyatda esa aynan qizning go'zalligini operator deb olishimiz mumkin. Ko'rinadiki, mazkur holatlarda birikmalarining ichki semantik ma'nosi operator vazifasida kelmoqda.

Ikkinchi misolimizda esa tobe so'zning o'zgarayotganligining guvohi bo'lamiz. Bu misolda ham xuddi birinchi misolimizdagidek, derivatsiya operatori uning ichki ma'nosi sanaladi. Bunda garchi so'z har ikki holatda ham tulpor haqida ketayotgan bo'lsa ham, uchning ichki ma'nosidagi farq tulporning xususiyatlarida ko'rinadi. Shuning uchun ham ichki ko'rinmas operatorning maqomini aynan ana shu xususiyatlar belgilab beradi. Boshqacha aytganda, birinchi vaziyatda tulporning qoraligi, ikkinchi vaziyatda tulporning uchqurligi derivatsiya operatori sanaladi. Guvohi bo'lganimizdek, bitishuv modelidagi kichik sintaktik qurilmalar derivatsiyasi ham sintaktik, ham semantik derivatsiyani taqozo qiladi.

Xuddi shunday holatni ingliz tilida ham uchramiz:

beautiful, nature – operand, ichki ma'no operator.

beautiful, girl – operand, ichki ma'no operator.

running, steed – operand, ichki ma'no operator.

black, steed – operand, ichki ma'no operator.

Ko'rinadiki, ikki til komparativ birikmalari derivatsiyasida ko'zga ko'rinarli farqlarga duch kelmoqdamiz. Bu farqlar nafaqat til va til birliklari o'rtasida, balki bevosita derivatsion jarayonda ham ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Sampson G. The form of language. London: Weidenfeld and Nicholson, 1975.
2. K. Djeyms. Kontrastivnyy analiz. // Novoe v zarubejnoj lingvistike. – Moskva, - 1989. S.207.
3. Turniyazov N.K., Turniyazov B.N., Turniyazova Sh. N. O'zbek tili derivatsion sintaksisi., Toshkent. – 2010.
4. Turniyazova Sh.N. Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent. - 2016. 65- b.
5. Turniyozov N.Q. O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish. – Samarqand, 1990. 42-bet.
6. Ibayev A.J. Komparativ sintaktik qurilmalar tilshunoslikning o'rganish obyekti sifatida// "So'z san'ati" xalqaro jurnali. – Toshkent, 2021. –№1. –B. 97-102.
7. Ibayev A.J. Comparative syntactic devices as an object of language study// Society and innovations. ISSN 2181-1415; Volume: 8 2021. –P 154-159.
8. Ibayev A.J. On the derivational features of corporate small syntactic structures// European multidisciplinary journal of modern science. ISSN 2750-6274; Volume: 6 | 09.05. 2022. – P. 311-315